

**ERKIN VOHIDOV SHE’RLARIDA QO‘LLANILGAN
BADIY SAN’ATLAR.****Hamidova Farangiz***ATMU, O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi,**1 kurs talabasi***Sh.Karomova***Ilmiy rahbar: f.f.n., dotsent*

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston Xalq shoiri Erkin Vohidov she’rlarini betakror va yorqin, ta’sirchan va jozibali badiiy lavhalar, timsollar yaratishda badiiy san’atlardan mahorat bilan foydalanganligini tahlil qilishga harakat qilingan.

Kalim cʻyʻz: *badiiy san’at, badiiy lavha, timsol, “husni ta’lil”, “Talmeh”, “Tanosub”*

Ming yillar davomida shakllanib, san’at nomini olgan badiiylik faqatgina she’r bezagi emas, balki shoir niyatini yetkazuvchi vositadir. So‘zning so‘zdan farqini, solishtirma og‘irligini, sal imo bilan uning rangi, ohangi, ma’nosi o‘zgarib qolishini shoirlar biladigan, xis qiladigan odam bo‘lmasa kerak.

Ayniqsa, Erkin Vohidov so‘zni mo‘jizalar sayyorasi deb biladi: bu sayyorada sayr etishdan zavqlanadi. U Navoiy, Fuzuliy, Ogahiy singarilarning so‘z qo‘llash mahoratiga tan beradi, ular qo‘llagan so‘zlarni yuz alfozda talqin, tahlil qilishdan erinmaydi.

Erkin Vohidovning badiiy san’atlarni qo‘llab, betakror va yorqin, ta’sirchan va jozibali badiiy lavhalar, timsollar yaratishdagi muvaffaqiyatlari, bu sohadagi san’atkorligini shoir she’rlarida ko‘rishimiz mumkin.

Mumtoz she’riyatimiz badiiyatini chuqur o‘rgangan Erkin Vohidov husni ta’lilning yangi-yangi talqinlarini yaratdi. Shoir hayotimizda qo‘llaniladigan turli buyumlar holatini g‘ayritabiiy talqin qilish vositasida “husni ta’lil” san’atining ajoyib badiiy ifodalarini bitadi. Uning “Mag‘rurlik haqida” deb nomlangan she’ridagi talqin bu jihatdan ahamiyatli:

Garchi shuncha mag‘rur tursa ham,

Piyolaga egilar choynak.

Shunday ekan, manmanlik nechun,

Kibru xavo nimaga kerak?

Kamtarin bo‘l, hatto bir qadam

O‘tma g‘urur ostonasidan.

Piyolani inson shuning-chun

O‘par doim peshonasidan.

Choynak bilan piyolaning munosabati, choynakning choy quyish onida piyolaga egilishi, piyolaning inson labiga tegishini g‘ayritabiiy sharhlagan shoir mag‘rurlikni fosh etib, kamtarlikni ulug‘lovchi ajoyib asar yaratgan.

Bosh tebratar soat kafgiri,

“Shoshil, odam, o‘tmoqdadir on.

Har narsaning bo‘lar oxiri,
Bosh tebratib qolma so‘ng, inson!”.

Soat kafgirining harakatini odamlar holatiga qiyos qilib, g‘ayritabiiy sharhlash muhim bir ijtimoiy-axloqiy g‘oyani yoddan chiqmaydigan tarzda ifodalashga imkon bergan.

Bizdan ortda surg‘almasin deb,
Bizlar bilan chiqsin deb yo‘lga.

Soat qilib, Zanjir o‘tkazib,
Bog‘lab oldik fursatni qo‘lga.

Shu mavzuga bag‘ishlangan yuqoridagi misralarda ham vaqtni ardoqlash g‘oyasi o‘zining ta’sirchan badiiy ifodasini topgan. Bu jihatdan ham xusni ta’lil san’ati orqali inson va jism o‘rtasidagi harakat o‘xshashligi orqali bu holatni chiroyli dalillashga harakat qildi va uning uddasidan chiqa oldi.

Erkin Vohidovning ko‘pgina she’rlarida talmeh san’atidan ham unumli foydalanib go‘zal she’rlar yaratganini ko‘rishimiz mumkin. “Talmeh” nazar solmoq, ko‘z qirini tashlamoq degan ma’noni beradi. Bunda she’riy misralarda mashhur shaxslar, afsonaviy qahramonlar, tarixiy voqealarni qo‘llash nazarda tutiladi.

Uning “Shoir umri” she’rida qo‘llanilgan talmeh she’riy san’atini ko‘rishimiz mumkin :

“Mana, men Lermontov yoshiga yetdim,
Bir shoir umrini yashadim chindan”.
Qancha qog‘ozlarning boshiga yetdim,
Va lekin Lermontov chiqmadi mendan.

Yuqorida keltirilgan she’rda Lermontov nomini qo‘llanilishi talmeh she’riy san’atini yuzaga keltirgan.

Tanosub she’riy san’ati she’riy baytlarda ma’no jihatdan bir-biriga yaqin tushunchalarni anglatuvchi so‘zlar orqali hosil bo‘ladi. Shoirning “Olimlarning rafiqalariga” she’rida ham qo‘llanilgan she’riy san’atni ko‘rishimiz mumkin.

Siz mohi tobonsiz, malaksiz, pari,
Eng ulkan dahriylar topingan sanam.
Siz buyuk davrimning fidoyilari,
Ahli donishlarga eng munis hamdam.

She’rda qo‘llanilgan “mohi tobon”, “malak”, “pari” so‘zlari tanosub she’riy san’atini yuzaga keltirgan.

Erkin Vohidov she’rlari o‘zing jozibadorligi, bir o‘qishdayoq insonning xotirasiga muhrlanib qolishi unda ajoyib she’riy san’atlardan mohirona foydalanganligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shu jihati bilan ham shoir she’riyati yanada go‘zalligini ko‘rishimiz mumkin.

FOYDALANILGN ADABIYOTLAR:

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent.: O‘qituvchi.,1979
2. Quronov D. Adabiyotshunoslik terminlar lug‘ati. Toshkent. “Fan” 2010
3. Vohidov E. Tabassum . Toshkent “Yangi asr avlodi”-2014